

Muammo, taklif, yechim

Mustaqillik yillarda uzlusiz ta'lim tizimini isloq qilish uchun juda ko'p va xo'p sa'y-harakatlar amalga oshirildi. Ammo bu urinishlardan ko'ngil to'ladigan natijalar bo'lmadi. To'g'ri, yangi binolarning ishga tushirilgani, eski, nochor muassasalar rekonstruksiya qilingani, ta'lim muassasalarining o'quv-moddiy bazasi takomillashgani, kadrlar tayyorlashga, maktabgacha ta'limga e'tibor kuchayganini har holda ta'kidlash mumkin.

"Ta'lim to'g'risida"gi qonun talablari va Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning uzlusiz ta'lim tizimini isloq qilish to'g'risidagi qator Qaror va Farmoyishlari asosida tashkil etilgan Prezident mакtablari, Ijod mакtablari, fanlarni chuqurlashtirib o'qitadigan maxsus maktablar ochilganini ham e'tirof etsa bo'ladi.

Ammo uzlusiz ta'lim tizimining asosiy bosqichi bo'lgan umumiyo'rta ta'lim mакtablariда ta'lim sifati samaradorligi, ya'ni o'quvchilarining fanlardan o'zlashtirish ko'rsatkichlari hamon pastligicha qolmoqda. Dars intizomiga nisbatan salbiy munosabat yildan yilga ildiz otmoqda. Olib borilayotgan tashkiliy tayyorgarlik, tarbiyaviy ishlar ijobjiy natija bermaydi. Nega ijobjiy tomonqa o'zgarmayapti, buning asosiy sababi nimada, bu qachongacha davom etishi mumkin, millat taqdiri nima bo'ladi?

Bu kabi savollarga ta'lim sohasining yuqori mutasaddi rahbarlari tomonidan javob berish vaqt-toati yetib kelmadimi? Yoki ahvol shunday davom etaversa, islohotlar uchun yana necha yillar kerak, har holda XXI asr O'zbekistonda islohotlar asri bo'lib qolmasligi kerak-ku!

Kamina butun umri va hayotiy tajribasini ta'lim sohasiga bag'ishlagan keksa pedagog sifatida davlatimiz tomonidan olib borilayotgan ta'lim sohasidagi siyosatga qarshi chiqma-

yangi avlodini tayyorlash zarurati mavjud. Bunday sinflarda ishlaydigan o'qituvchilarini ham tanlov asosida tayinlash kerak bo'ladi. Maktablardagi novator va innovator o'qituvchilarining ana shu sinflarda dars berishlari hamda ularga alohida qo'shimcha tarif asosida haq to'lashni yo'lga qo'yish zarur.

Xuddi shunday tajriba 1995–2000-yillarda(Qashqadaryo va boshqa ayrim viloyatlarda) qo'llanilganida o'quvchilarining fanlarni o'zlashtirish va oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish ko'rsatkichi yaqqol oshgan edi. Marhum vazirimiz Jo'ra Yo'ldoshev bunday istiqbolli tashabbusni o'z davrida kun tartibiga qo'ygan va biz viloyat xalq ta'limi boshqarmasi rahbarlari imkon qadar amalda qo'llab yaxshi natjalarni qo'lga kiritishni boshlagan ham edik.

Afsuski, viloyat va respublika miqyosida rahbar kadrlar tez-tez almashinuvni, ta'lim-tarbiya samaradorligiga erishining real imkoniyatlarini tushunib yetmagan rahbarlarning e'tiborsizligi oqibatida bunday va boshqa tajribalar ham barham topdi. Tajribali o'qituvchilarining taklif va mulohazalari e'tibordan chetda qoldi.

Respublikamizda ayrim fanlarni chuqurlashtirib o'qitadigan mакtablari tashkil etilganligini olqishlash kerak, lekin bu respublika miqyosida yetarli emas.

SANSALORLIK QACHONGACHA?

gan holda ayrim mulohaza va takliflarimni keltirishni lozim topdim.

2005–2025-yillar davomida Respublika xalq ta'limi vazirligida 10 ga yaqin vazirlar almashinuv ro'y berdi. Ular bir yildan ikki yarim yilgacha faoliyat ko'rsatishgan. Savol tug'iladi: ular juda qisqa vaqt davomida respublika ta'lim tizimi bilan tanishib ulgurishdimi yoki respublikadagi haqiqiy ahvolni qanchalik o'rganishdi? Uzoq hududlardagi mакtablarning moddiy-o'quv bazasi, u yerda faoliyat olib borayotgan pedagoglar tarkibi, ta'lim-tarbiyaviy muhit to'g'risida tasavvur hosil qildimi? Ta'lim sohasi islohotlarining depsinib turishi – bu boshqaruva sohasida arzirli, yetarli darajada tajribaga ega bo'lgan mutaxassis rahbar kadrlarning tayinlangani bilan ham bog'liqligini unutmasislik kerakka o'xshaydi. Qisqa vaqt davomida bira boshlagan ishni ikkinchisi inkor etishi, o'zi "yangilik yarataman" deb jamoani chalg'itgani kabi misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Aslida ta'lim sohasini tubdan isloq qilishda ilmiylik, milliylik, vorisyilik tamoyillariga asoslanish kerak bo'ladi. Milliy pedagogikaning ilg'or tajribalari, sharq allomalarining ta'lim-tarbiya to'g'risidagi boy ma'naviy meroslaridan keng foydalananishga ahamiyat berish joiz.

Ta'lim islohotlarini amalga oshirishda dastlab "Milliy ta'lim dasturi"ni yaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Hali Finlandiya tajribasi, hali Singapur tajribasiga osilib arosatda qolib yurishdan tiyilish kerak. Chunki biz mustaqil ijtimoiy demokratik davlatda yashayotganimizni unutib qo'ymasligimiz lozim. Xorij tajribasini o'rganish ham kerak, ilg'or tajribalarning milliy mentalitetga mosini tanlab foydalananish ham zarur. Ammo barcha islohotlarga "Milliy ta'lim dasturi" bosh mezon bo'lib xizmat qilishi kerak.

Ikkinchidan, mакtab ta'limi samarasizligining eng asosiy sababi – bu barcha fanlarni barcha o'quvchilarga bir xil talab bilan o'qitish va bir xil o'zlashtirishni talab qilishdir. Hayotiy tajribalar ham, uzoq yillik pedagogik tajribalar ham o'quvchilar barcha fanlarni bir xilda amaldagi DTS talablari darajasida o'zlashtirishi aslo mumkin emasligini ko'rsatadi. Chunki har bir bolada o'ziga xoslik mayjud. Kimsidir aniq va tabiiy fanlarga, kimsidir ijtimoiy-gumanitar fanlarga, kimsidir kasb-hunarga qiziqishi va alohida qobiliyatga egaligini inkor etib bo'lmaydi. Shuning uchun mакtab ta'limini differensial(tabqaqlashgan) yondashuv asosida tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bundan maqsad shuki, vazirlik buyrug'i bilan o'quvchilar kontingenti ko'p(parallel sinflar soni 4-5 ta) bo'lgan mакtablarda fanlarni chuqurlashtirib o'qitiladigan maxsus sinflarni tashkil etish va ularga qiziqishi va intellektual qobiliyatiga ko'ra o'quvchilarini saralash, bu sinflar uchun maxsus o'quv reja, o'quv dasturi va darsliklarning

Uchinchidan, fanlarni o'qitishda muqobil darsliklarni yaratish zamon talablardan biri hisoblanadi. O'quvchilar uchun ham, o'qituvchilar uchun ham darsliklardan tanlab foydalananish imkon yaratilishi lozim. Barcha mакtablarni bitta o'quv reja va bitta o'quv dasturi, bitta darslik asosida o'qitishdan voz kechishning vaqtı allaqachon yetib keldi. Ilg'or jahon tajribasi ham buni yaqqol tasdiqlaydi.

To'rtinchidan, o'qituvchilarini arzirli moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashni yo'lga qo'yish juda zarur. Statistik ma'lumotlarga ko'ra respublika miqyosida o'qituvchilarining o'rtacha oylik ish haqi endigina to'rt million so'mni tashkil etgan – buni yetarli deb bo'lmaydi.

Beshinchidan, farzand tarbiyasida ota-onalar mas'uliyatini oshirish, mакtab bilan oila o'tasida hamkorlik pedagogikasini yo'lga qo'yish, oila boshliqlariga pedagoglar tomonidan tarbiya borasida amaliy va metodik yordamni kuchaytirish masalasi ham muhim ahamiyatga ega.

Oltinchidan, mакtab rahbarlarini tanlash masalasida yanigicha tartib o'rnatish, bo'lajak mакtab direktorlarini maxsus tayyorlash, stajirovkalarga yuborish, mas'uliyatlari, shijoatli, izlanuvchan, yetarli tajribaga ega bo'lgan, yangiliklarga o'ch bo'lgan kadrlarni menejmentlik faoliyatiga tayinlash foydadan xoli bo'lmaydi. Hozirgi faoliyat olib borayotgan mакtab direktorlarining ko'pchiligi zamonaviy talablarga javob bera olmaydi. Natijada ta'lim-tarbiya sohasida innovatsion metodlarni qo'llash, ta'lim texnologiyalarining eng samarali omillaridan foydalananishda no'noqlikka yo'l qo'yilmoqda. Chunki mакtab rahbarlari bunday ishlarni yo'lga qo'yish uchun o'z vaqtida o'qituvchilarga amaliy va metodik ko'rsatmalar bera olmaydilar, ular bunga tayyor emas.

Bu taklif va tavsiyalar keksa pedagogning shunchaki o'y-xayollarini emas, aksincha, reallikka asoslanib, tajribada o'z isbotini topgan haqiqatlardir. Zora, respublikamiz o'quvchilarining ta'lim-tarbiya samaradorligi jahon standartlari darajasiga ko'tarilib, raqobatbardosh mакtab bitiruvchilarini yetishtirish shoyad nasib etsa.

Yana bir taklif: Maktebgacha va mакtab ta'limi vazirligi nomini yana Xalq ta'limi vazirligi deya o'zgartirish masalasini ko'rib chiqish kerak. Chunki vazirlik tarkibida maktebgacha, mакtab va mакtabdan tashqari ta'lim, pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazlari, qolaversa, oliy ta'lim muassasalarini ham mavjud. "Xalq ta'limi" atamasi har tomonlama qulay va ixcham bo'lishi bilan birga maqsadni aniq ifodalaydi.

Rahmatilla MUSURMONOV,
CHDPU dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi

O'qituvchining kompetentliligini darajasiga qachon

Dolzarb mavzu

Ma'lumki, O'zbekistonda o'qituvchilar toifa olish yoki uni oshirish uchun attestatsiya(imtihon)dan o'tadilar. To'g'ri, buning ijobjiy jihatlari ham bor. Chunonchi, shu jarayonlarga tayyorgarlik ko'rish uchun o'qituvchi o'z ustida timilsiz ishlaydi.

Ayni paytda, mакtab, ota-onalar va o'qituvchilar jamoasi oldida falonchi muallim oliv yoki birinchi toifali o'qituvchi, degan e'tirof o'qituvchiga o'z faoliyatidan mammunlik kayfiyatini ham tuydiradi. Biroq ta'lim rivojlangan boshqa mamlakatlarda pedagogi bizdag'i kabi har 5 yilda bir marta attestatsiyadan o'tkazish amaliyoti qo'llanilmaydi. Ilg'or mamlakatlarda o'qituvchining o'z bilimini amalda qo'llay olish kompetentsiyasi birinchi o'ringa qo'yiladi. O'qituvchiga egallagan kompetentsiyalari darajasiga qarab baho beriladi va tan olinadi. Xususan, Singapurd ular har yili kompetentlilik darajasini bo'yicha attestatsiyadan o'tkaziladi. E'tibor bering, o'qituvchining fani bo'yicha bilim darajasi emas, u egallashi zarur bo'lgan 10 dan ortiq kompetentsiyasi bo'yicha attestatsiyadan o'tkazilayotir. Nega shunday? Sababi, bu mamlakatda bilimi past yoki o'rtamiyona o'qituvchining o'zi yo'q.

Ayting-chi, bizda o'qituvchilarining necha foizi o'qituvchi kompetentsiyasi degan tushunchani mani anglatishini biladi?.. Albatta, quvonarli foizda emas. Bundan ajablanmasa ham bo'ladi. Aslida bu tushuncha bizning pedagogikamizda o'tgan asrning 90-yillardan beri mavjud edi. Hatto Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-qaroriga asosan barcha umumta'lim fanlari dan kompetentsiyavi yondashuvga asoslangan DTS ham tasdiqlangan edi, lekin bajarilmadi. Sababi, Xalq ta'limi vazirligi bu qarorni deyarli unutib qo'ygan edi.

Xo'sh, kompetentsiya va o'qituvchi kompetentsiyasi nima? Pedagogika ensiklopediyasida kompetentsiya lotincha so'z ekanligi, u o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilinsa munosibman, loyiqman degan ma'nolarni anglatishi qayd etilgan(2-jild, T.2015.148-bet).

Binobarin, o'qituvchi kompetentsiyasi bu bি-ler masala, muammo bo'yicha o'qituvchining zarur bilim, tajribaga ega bo'lishi hamda ularni hal eta olishida namoyon bo'ladigan salohiyati, layoqatidir. Kompetentlilik esa ana shu salohiyat va layoqatni amalda qo'llay olish darajasidir.

Ushbu masalaga doir adabiyotlarda kompetentsiya shartli ravishda kasbiy, shaxsiy, umuminsoniy va madaniy hamda maxsus kompetentsiyalarga(4 turga) bo'linmoqda:

1. O'qituvchining kasbiy kompetentsiyasi mazmuni quyidagi 6 ta kompetentsiyadan iborat:

- pedagogika va psixologiyaga oid bilimlarni egallaganlik darajasi;
- bilim, ko'nikma va malakalarini(BKM) mustahkamlash ustida tizimli ishlay olish;
- o'quvchisini bilim olishga rag'batlantirishni bilish(motivatsiya);
- AKTni to'la egallagan bo'lish;
- ta'lim jarayoniga yangilik kiritish(kreativlik);
- o'z fanini zamon talabi darajasida bilish.